

## Bayramingiz muborak aziz xotin-qizlar

Yurtimizda bahor fasli, bahor nafasi. Mart oyi bahor kirib kelishi bilan o'zining bayramlari va o'zgacha shukhi bilan ajralib turadi. 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni, umumxalq bayramini barcha joylarda keng nishonlash bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Bugun 5-mart institutimiz xotin-qizlar jamoasi uchun katta bayram tadbiri.



Erta tongdan o'qituvchilar va talaba-qizlarni bir guruh institut fakultet yetakchilari jamoasi faol yigitlari musiqa sadosi ostida kutib olishdi hamda ularga esdalik uchun bayram nishonlarini taqishib, bayram bilan tabriklashdi. Gidromelioratsiya fakulteti yigitlari tomonidan raqs chiqishlari bilan fleshmob o'tkazildi. Kunning ikkinchi yarmida katta bayram tadbiri o'tkazilishi rejalashtirilgan.



**TIQXMMI matbuot xizmati**